

PEDAGOGIKA OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING GEOMETRIK  
BILIMLARINI NAZORAT VA BAHOLASH

**Abjalov Bekzod Asliddin o'g'li**  
**JDPI matematika yo'nalishi 2-kurs magistranti**

**Telefon:+998(94)-191-41-22**

**abjalovbekzod23@gmail.com**

**Annotatsiya:** Talabalarning bilim va malakalarini tekshirish ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini aniqlash usullari

**Kalit so'zlar:** Tekshirish, Nazorat, Takroriy tekshirish, Joriy nazorat, Oraliq nazorat, Yakuniy nazorat, Baholash

Nazorat (ta'lim jarayonida) ta'lim oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'lchash va baholash jarayonini anglatadi. Aniqlash va o'lchash esa tekshirish deb ataladi.

Tekshirish – nazoratning tarkibiy qismi bo'lib, uning asosiy didak-tik vazifasi o'qituvchi va talabalar o'rtasida aks aloqani ta'minlash, pedagoq tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish haqida ob'ektiv axborot olinishi xamda bilimlardagi kamchilik va nuqsonlarni o'z vaqtida aniqlash-dir. Tekshirishning maqsadi nafaqat talabanning bilim darajasi, sifati, balki uning o'quv mehnati hajmini ham aniqlashdan iborat.

Talabalarning bilim va malakalarini tekshirish qo'yida ko'rsatilgan mantiqiy ketma-ketlikda olib borilishi kerak:

Tekshirish tizimidagi birinchi bo'g'in ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oldindan aniqlash hisoblanadi. Odatda, u o'quv yili boshida talabalar tomonidan avvalgi o'quv yilida o'zlashtirilgan bilimlari darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu kabi tekshirish, shuningdek, o'quv yilining o'rtasida yangi bo'lim (kurs)ni o'rganishga kirishilganda ham o'tkazilishi mumkin va o'rinli bo'ladi.

Bilimlarni tekshirishning ikkinchi bo'g'ini har bir mavzuni o'zlash-tirish jarayonidagi joriy tekshirishdir. Joriy tekshirish ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv dasturida belgilangan ayrim alohida elementlarni o'zlashtirish darajasini tashxislash

imkonini beradi. Mazkur tekshirish-ning asosiy vazifasi o'rgatishdir. Bunday tekshirishning shakl va metod-lari turlicha bo'lib, ular o'quv material mazmuni, murakkabligi, talaba-larning yoshi va tayyorgarligi, ta'lim bosqichi va maqsadlari, muayyan peda-gogik sharoitlarga bog'liq bo'ladi.

Takroriy tekshirish bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirishning uchinchi bo'g'ini sanalib, joriy tekshirish kabi mavzuli bo'lishi mumkin. Yangi mavzuni o'rganish bilan birga talabalar avval o'rganilganlarni tak-rorlaydilar. Takroriy tekshirish bilimlarni mustahkamlashga ko'maklasha-di, biroq o'quv ishlari bosqichini tavsiflash, bilimlarni o'zlashtirish mus-tahkamligi darajasini tashxislash imkonini bermaydi. Ushbu tekshirish tashxisning boshqa turlari va metodlari bilan birga qo'llanilsagina kutil-gan samarani beradi.

Tizimning to'rtinchi bo'g'ini talabalarning bilim, ko'nikma va mala-kalarini yaxlit bo'lim yoki kursning alohida mavzusi bo'yicha davriy tek-shirish hisoblanadi. Mazkur tekshirishning maqsadi – kursning turli qismlarida o'rganilgan o'quv materialining strukturaviy elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'zlashtirish sifatini tashxislash. Davriy tekshirishning asosiy vazifasi – tizimlashtirish va umumlashtirish.

Tekshirishni tashkil etishda beshinchi bo'g'in ta'lim oluvchilarning, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida egallangan bilim, ko'nikma va ma-lakalarini yakuniy tekshirish va hisobga olishdir. O'zlashtirishning yaku-niy hisobi har bir chorak va o'quv yili oxirida o'tkaziladi. U olingan baho-larni qo'shib, o'rtacha arifmetik ballni mexanik tarzda chiqarishdangina iborat bo'lmasligi lozim. Bu, avvalo, mazkur bosqichda belgilangan maqsadga muvofiq tarzda amaldagi ta'lim olganlik darajasi (sifati)ni tashxis-lashdir.

Tekshirishdan tashqari nazorat o'z ichiga baholashni (jarayon sifa-tida) va bahoni (natija sifatida) ham oladi. Baholash deb bilim, ko'nikma va malakalarni o'quv dasturida ko'rsatilgan etalon (ko'rstakich, qolip, o'lcha-gich)lar bilan solishtirishni aytamiz. Baho deb baholashning ball shaklida ko'rsatilgan son jihatdan o'lchamiga aytiladi. O'zlashtirish tabellari, sinf, guruh jurnallari, reyting daftarchalari va shu kabilarda baholar shartli belgilar, kod signallari, xotiralash

belgilari va hokazolar baho ko'rini-shida qayd etiladi. Talabani o'zlashtirish darajasini baholash uchun na-zorat yakunlari (natijalari) asos bo'ladi. Bunda talabalar ishining ham sifat, ham miqdor ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Miqdor ko'rsatkichlari ko'proq ballar yoki foizlarda, sifat ko'rsatkichlari esa a'lo, yaxshi, qoni-qarli va hokazo baholovchi fikrlar yordamida qayd etiladi. Har bir baho-lovchi fikrga oldindan kelishilgan (belgilangan) ball, ko'rsatkich (masalan, o'rin – 1, 2, 3, 4 va hokazo) tayinlanadi. Bunda baho o'lchash va hisoblashlar natijasida olinadigan son emas, balki baholovchi fikrga yuklangan ma'no ekanini unutmazlik muhim. Baholarni son sifatida qo'llashga berilib ketishning oldini olish uchun bir qator mamlakatlarda baholar harfli (A, V, S, D va hokazo) ifodaga ega.

Bahoni amalda egallangan bilim, ko'nikma va malakalar bilan davlat ta'lim standartiga ko'ra o'zlashtirilishi belgilangan bilim, ko'nikma va malakalar umumiy hajmi o'rtasidagi nisbat sifatida tushunish (ta'rif-lash)dan ta'lim darajasining miqdoriy mazmuni kelib chiqadi. O'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) ko'rsatkichi  $B=A/T*100\%$  nisbat asosida hisoblanadi. Bunda:

B – o'zlashtirish (ta'lim samaradorligi) bahosi;

A – amalda o'zlashtirilgan bilim va malakalarning hajmi;

T – o'zlashtirish uchun taklif etilgan bilim va malakalarning to'liq hajmi.

Ko'rinib turibdiki, o'zlashtirish ko'rsatkichi (baho) bu o'rinda 100% – axborotni to'liq o'zlashtirish va 0% – uning umuman mavjud emasligi o'rta-sida bo'ladi. Ma'lumki, baholash funktsiyasi ta'lim darajasini qayd etish bilangina cheklanmaydi. Baho – pedagog ixtiyoridagi o'qishni, ijobiy moti-vatsiyani rag'batlantirishning va shaxsga ta'sir ko'rsatishning yagona vosita-si. Aynan xolis (ob'ektiv) baholash ta'sirida, talabalarda adekvat o'z-o'zi-ni baholash, shaxsiy muvaffaqiyatlarga tanqidiy munosabat yuzaga keladi. SHu bois bahoning ahamiyati, vazifalarining xilma-xilligi talabalar o'quv faoliyatining barcha jihatlarini aks ettiradigan va ularni aniqlashni ta'-minlaydigan ko'rsatkichlarni izlab topishni talab etadi.

O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtda talabalarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga xarakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak.

Nazorat qilish vazifasi talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash va baholashdan iborat. Bu o'quv materiallarini o'rganishning keyingi bosqichiga o'tish imkoniyatlarini aniqlashtiradi ham-da o'qituvchining o'quv metodlarini va usullarini to'g'ri tanlaganini nazorat qiladi. Nazorat qilish vazifasi o'quv materiallarini o'rganishning maqbul yo'llarini topish bilan bog'liqdir.

O'qitish vazifasi talabalarning bilimini tekshirishda aniq ko'ri-nadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshi-rishda talabalarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi. Chunki guruhdagi boshqa talabalar javob berayotgan talabaning fikrlarini diqqat bilan tinglashadi va avval egallangan bilimlarni mustahkamlab, qo'shimcha ma'lu-motlar bilan boyitishadi. O'rtoqlarining javoblariga qo'shimcha qilishga yoki yechilmay qolgan savollarga javob berishga shaylanish orqali o'rganilgan mavzuni aniqlashtirishga harakat qiladi.

Nazoratning tarbiyalash vazifasi shundan iboratki, talabalar tek-shirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqt-laridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

SHuningdek, tekshirish va baholash talabaning o'z bilimlari va qobi-liyatlarini o'zi mustaqil aniqlashiga ham yordam beradi. O'zidagi kamchilik-larni ko'ra olishga va uni tugatish yo'llarini izlashga ko'maklashadi. Lekin talabaning bilimini baholashda o'qituvchi nohaqlikka yo'l qo'ysa, talaba bi-lan o'qituvchi o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Uy vazifalarining esa haddan ziyod ko'p bo'lishi ham talabalarning yuzaki dars tayyorlashiga olib keladi.

Eng asosiysi, o'zlashtirishni hisobga olish, shaxsning ijobiy fazi-latlarini shakllantirish, yaxshi o'qishga xohish uyg'otish, o'quv ishlariga vijdonan yondashish, javob berishga tayyorlanishda mustaqil bo'lish hamda bilish faoliyatini chuqurlashtirishga qaratilmog'i lozim.

Agar nazoratning o'qitish va tarbiyalash vazifalari to'g'ri amalga oshirilsa, shaxsning tafakkurini rivojlantirishga, his-tuyg'ulari va axlo-qiy sifatlarini tarbiyalashga imkon tug'iladi. Bu esa o'z-o'zidan nazoratning rivojlantiruvchi vazifasi sanaladi.

Talabalarning o'quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari. Xozirgi davr pedagogik amaliyotida talabalar o'quv faoliyatini nazorat qilishning qo'yidagi turlaridan foydalaniladi:

1. joriy nazorat;
2. oraliq nazorat;
3. yakuniy nazorat.

Joriy nazorat o'qituvchi tomonidan talabalarning har bir o'quv ishini muntazam nazorat qilishni hamda ularning o'rganilgan mavzularni o'zlashtirish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini tekshirishni o'z ichiga oladi. Bilim darajasini tekshirish fanning har bir mavzusi bo'yicha kundalik ballar qo'yib borishni nazarda tutadi. Joriy nazorat o'qituvchini har bir talabaning o'quv faoliyati bo'yicha tezkor ma'lumotlar bilan ta'minlaydi, o'qitish jarayonini boshqarishda yaxshi natija beradi, o'zlash-tirmagan talabalarni o'z vaqtida aniqlaydi, o'zlashtirmaslikni bartaraf etish bo'yicha choralar belgilaydi.

Oraliq nazorat - bu talabalar tomonidan mazkur fanning muayyan bob yoki bo'limlarining o'zlashtirilganini tekshirish. Oraliq nazoratni o'qituvchi dars jadvali asosida darsda o'quv materialining o'ziga xos xusu-siyatini hisobga olgan xolda o'tkazadi.

Oraliq nazorat o'tkazishdan oldin talabalar ogohlantiriladi. Har bir oraliq tekshirish alohida-alohida shkala asosida baholanadi.

Yakuniy nazorat – choraklik, yarim yillik, yillik va davlat attesta-tsiyasi sinovlari singari turlarga bo'linadi. Yakuniy nazorat og'zaki, yozma, test hamda amaliy topshiriqlarni bajarish metodlari asosida o'tkaziladi.

Nazoratning shakli o'quv ishini tashkil etish shakliga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi uni mavzudan kelib chiqib tanlaydi. Nazoratning asosiy besh shakli mavjud:

- nazoratning ommaviy (frontal) shaklida o'qituvchi talabalarga materialning ma'lum bir hajmi bo'yicha savol beradi, talabalar unga qisqa javob qaytaradi. Mazkur so'rash ko'pchilik talabani nazorat qilishni ta'minlaydi va butun guruhni faollashtiradi. Ammo bu nazoratni talabalar-ning bilim darajasini har tomonlama aniqlash uchun qo'llab bo'lmaydi.

- nazoratning guruhli shaklida talabalarning ma'lum bir qismi nazorat qilinadi. O'qituvchi tomonidan talabalar guruhiga vazifa beriladi va uni shu guruh bajaradi. Lekin masalani hal qilishda boshqa talabalar ham qatnashishi mumkin. Guruh ishlayotgan paytda qolgan talabalar bo'sh qolmaydi, ular o'rtoqlarining bajargan ishlarini baholash uchun o'z ustilarida ishlab o'tiradi.

- nazoratning individual shaklidan har bir talabaning bilim, ko'nikma va malakasi bilan mukammal tanishish uchun foydalaniladi. Nazoratning bu shaklida odatda talabalar javob berish uchun sinf taxtasi oldiga chaqiriladi.

- nazoratning kombinatsiyalangan (biriktirilgan) shakli individual nazoratni ommaviy va guruhli shakllar bilan birlashtirishni taqozo etadi. Bu nazoratni hajmi katta mavzularni barcha talabalardan so'rash kerak bo'lgan vaqtda foydalanadi. Har bir talabaga alohida topshiriq beriladi va bir vaqtda birnecha talabani tekshirish mumkin bo'ladi.

- o'z-o'zini nazorat qilish shakli ta'lim jarayonida ichki aks aloqaning bo'lishini ta'minlaydi. Nazoratning bu shakli psixologik mezonlarga asoslanadi. Uning samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Talabalarning o'quv faoliyatini nazorat qilish metodlari quyidagilar: og'zaki tekshirish, yozma tekshirish, amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish, uy vazifalarini tekshirish.

Og'zaki tekshirish. Bu metod bilimlarni nazorat qilish va baholashning ancha keng tarqalgan an'anaviy usullaridan biridir.

Og'zaki tekshirishning mohiyati shunda ko'rinadiki, o'qituvchi talabalarga o'rganilgan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, savollar beradi va ularni javob berishga undaydi. Ana shu tarzda ularning o'zlashtirish darajasini aniqlaydi. Og'zaki tekshirish talabalarning bilimlarini tekshirishni savol-javob usuli asosida

amalga oshiriladi. Ushbu usul ayrim hol-larda suhbat usuli deb ham ataladi. Og'zaki tekshirishda o'qituvchi o'rgani-layotgan mavzuni alohida qismlarga ajratadi va ularni har biridan talabalarga savollar beradi. Biroq talabalarning nutqini o'stirish hamda ularning chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lishlari uchun ulardan shu yoki oldingi mavzuni butunlay esga tushirishni talab qilish mumkin.

Yozma tekshirish – talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholashning eng samarali usullaridan biri bo'lib, ular-ning ijodiy qobiliyatlarini baholash imkonini beradi. Mazkur usulning mohiyati shundaki, o'qituvchi alohida mavzu yoki o'quv dasturining ma'lum bo'limini o'tib bo'lganidan so'ng oz vaqtning ichida barcha talabalarni tek-shirishi mumkin. Yozma tekshirish nazorat ishi, insho, bayon, diktant va b. yor-damida olib boriladi. Ammo o'qituvchi va talaba o'rtasida bevosita aloqa-ning yo'qligi sabali, uning fikrlashini kuzatish imkoni bo'lmaydi.

Amaliy topshiriqlarni bajarishga asoslangan tekshirish. Bajarilayotgan amaliy harakatlar (sport, mehnat harakatlari)ning to'g'rili-gini kuzatish yoki olingan natijalarga tayanishdan iborat bo'lishi mumkin. Amaliy tekshirish tabiiy-matematik tsikldagi fanlardan talabalarning o'z-lashtirishini xisobga olishda keng foydalaniladi. Bu usul yordamida o'quv-chilarning olgan bilimlarini amaliyotda qo'llay olish malakasi aniqla-nadi.

Uy vazifalarini tekshirish. Talabalarning o'zlashtirishini nazo-rat qilish uchun ularning uyga berilgan vazifalarni bajarishini tekshi-rish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish o'qituvchiga talaba-larning o'quv ishiga bo'lgan munosabatini, o'rganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Ma'lumki, bugun ta'lim tizimida reyting nazoratidan keng foyda-lanilmoqda.

## FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

2. O'zbekiston respublikasi prezidentining "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari" to'g'risidagi qarori. PQ-4708-son.07.05.2020

3. K.Jalilov, "Baxolash nazariyasi asoslari" Toshkent,Akademnashr, 2020.